



Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik savodxonlikni shakllantirish



10-mavzu:
Tabiiy o'yinchoqlar va tabiiy
ovqatlar



10.1. Mashg'ulotning o'qitish texnologiyasi

Mashg'ulotning maqsad va vazifalari	Ta'lim beruvchi faoliyati: • Bolalarga tabiiy mahsulotlardan tayyorlangan va notabiiysi o'rtasidagi farqni tushuntiradi. • Tabiatga zarar yetkazmaydigan o'yinchoqlar haqida misollar beradi.	Ta'lim oluvchilar uchun kutilayotgan natijalar: • Tabiiy materiallar (yog'och, paxta, tosh, barg) tabiatga zarar yetkazmasligini biladi.. • O'z qo'llari bilan tabiiy o'yinchoq yasay oladi. • Tabiiy ovqatlarni farqlaydi.
O'quv jarayoni mazmuni va mashg'ulotni amalga oshirish texnologiyasi	• Kirish – qizitish bosqichi • Asosiy qism – o'yin faoliyati • Yakun – rag'bat va motivatsiya	Shakl: Interfaol STEAM mashg'uloti Metod: Tajriba, suhbat, muammoli vaziyat, rasmlil taqqoslash, guruhli o'yin, amaliy ijod Vosita: Tabiiy materiallar (yog'och, tosh, barg, yong'oq), plastik o'yinchoqlar, kartochkalar, idishlar O'qitish sharoiti: Xavfsiz ijodiy burchak, keng xona, qo'l mehnati uchun materiallar mavjudligi

10.2. Mashg'ulotning texnologik xaritasi

Kirish qismi (5 daqiqa)	Kichik tajriba: "Tabiiy o'yinchoq – plastik o'yinchoq" Pedagog ikkita idish ko'rsatadi: • 1-idish: tabiiy materiallar (yog'och bo'lagi, paxta, qog'oz) • 2-idish: plastik detallari Savol: "Qaysi biri yerda tezroq yo'qoladi?"	Bolalar javo beradi: "Yog'och va paxta yo'qoladi, plastik yo'qolmaydi."
Asosiy qism (20 daqiqa)	Interfaol o'yin: "Tabiiymi yoki plastik?" Harakatli o'yin: "Tabiatga zarar bermaymiz!" Suhbat–mulohaza: "Nega tabiiy o'yinchoqlar foydali?" STEAM amaliy faoliyat: "Tabiiy o'yinchoq yasaymiz"	Bolalar ularni TABIIY va PLASTIK farqini ajratadilar. Harakat orqali eslab qoladilar.
Yakun (5 daqiqa)	Refleksiya savollari: • "Nega tabiiy o'yinchoqlar yaxshi?" • "Plastik ko'payganda tabiatga nima bo'ladi?" Rag'bat: "Tabiat do'sti" yorlig'i Maqтов so'zlari	Xulosa chiqaradilar. Ishtirok etadilar.

Harakatli o'yin: "Tabiatga zarar bermaymiz!"

Qoidalar:

"Tabiiy!" deb aytilganda bolalar daraxt bo'lib tik turishadi.

"Plastik!" deb aytilganda bolalar qo'llarini "yo'q" deb silkitishadi.

"Tabiatni asraymiz!" deb aytilganda bolalar qo'llarini yuragiga qo'yadi.

👉 Bu o'yin ong + harakat orqali eslab qolishni kuchaytiradi.





NOTABIIY OVQATLAR VA O'YINCHOQLAR



NOTABIIY (SUN'IY) OVQATLAR

(Ko'p miqdorda kimyoviy moddalar, bo'yoqlar, konservantlar qo'shilgan)



Shirinliklar



Ichimliklar:

Gazli ichimliklar

Energetik ichimliklar

Sun'iy sharbatlar (paketdagi)



Tayyor va qadoqlangan ovqatlar

Chips

Fast food (burger, hot-dog)

Paketdagi suxariklar

Muzqaymoqning kimyoviy qo'shimchali turlari



NOTABIIY (SUN'IY)

O'YINCHOQLAR

◆ Plastmassadan yasalgan:

Plastik mashinalar

Plastik qo'g'irchoqlar

◆ Elektron o'yinchoqlar:

Batareya bilan ishlaydigan robotlar

Chiroqli, ovozli, sensorli o'yinchoqlar



◆ Kimyoviy moddali:

Slaymlar

Kimyoviy bo'yoqli o'yin massalari



TABIY O'YINCHOQLAR



(Tabiatdan olingan yoki ekologik materiallardan yasalgan o'yinchoqlar)



Yog'och o'yinchoqlar:

Yog'och mashina

Yog'och kublar

Yog'och hayvonchalar


Sen ham tabiiy o'yinchoq
yasa!



Tabiat – bizning do'stimiz, buni unutma!

Tabiiy ovqatlar
tayyorlay
olasanmi?

Albatta!



Fikr-mulohazalaringizni yozib qoldiring.

[illegible]

www.trm.uz

